NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



## 2022- YIL YANVAR-IYUL



**2022- yilning yanvar-iyul oylarida, Namangan viloyatida jami 3479,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 110,1 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni




**1220** Bino va inshootlar qurilishi

**260** Fuqarolik obyektlarini qurilishi

**926** Ixtisoslashtirilgan quilish ishlari

Hududlar kesimida




Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yil bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 97,1 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 50,7 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 10,8 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 38,5 foiz ulushni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o‘tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.08.2021- y. | 01.08.2022- y. | |
| Namangan viloyati | 2479 | 2406 | 97,1 |
| *tumanlar:* | | | |
| Mingbuloq | 76 | 79 | 103,9 |
| Kosonsoy | 271 | 256 | 94,5 |
| Namangan | 141 | 121 | 85,8 |
| Norin | 133 | 133 | 100,0 |
| Pop | 113 | 117 | 103,5 |
| To’raqo’rg’on | 111 | 107 | 96,4 |
| Uychi | 229 | 240 | 104,8 |
| Uchqo’rg’on | 172 | 172 | 100,0 |
| Chortoq | 163 | 172 | 105,5 |
| Chust | 183 | 173 | 94,5 |
| Yangiqo’rg’on | 103 | 103 | 100,0 |
| Namangan shahar | 784 | 733 | 93,5 |



# 2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

Namangan sh.(30,5)



Kosonsoy  (10,6)




Uychi (10,0)





# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-iyul uchun

| | Qurilish ishlari, mln. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Namangan viloyati | 3479063,2 | 263055,9 | 2189049,6 | 1026957,7 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Mingbuloq | 108421,8 | - | 66454,3 | 41967,5 |
| Kosonsoy | 287170,7 | - | 151933,0 | 135237,7 |
| Namangan | 298562,9 | 6833,0 | 218494,0 | 73235,9 |
| Norin | 130342,4 | - | 53143,2 | 77199,2 |
| Pop | 299668,6 | 132897,3 | 119868,1 | 46903,2 |
| To’raqo’rg’on | 179318,7 | - | 119838,0 | 59480,7 |
| Uychi | 383820,2 | 23024,8 | 292589,5 | 68205,9 |
| Uchqo’rg’on | 221414,4 | 8626,1 | 101123,9 | 111664,4 |
| Chortoq | 238417,2 | - | 155608,9 | 82808,3 |
| Chust | 185775,2 | 2485,5 | 83196,9 | 100092,8 |
| Yangiqo’rg’on | 178869,8 | 1242,3 | 89944,2 | 87683,3 |
| Namangan sh. | 967281,3 | 87946,8 | 736855,7 | 142478,8 |

**2022- yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 263055,9 mln. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 238,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 4,1 % punktga ko‘payib, 7,6% ni tashkil etdi.**



# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-iyul uchun

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 44,3 %) ga to‘g‘ri keldi.**

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2022- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,9 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 4,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 102,2 % ni tashkil etgan holda 2189049,7 mln. so‘m miqdorida qayd etildi.**

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




**62,9**
2022- yil yanvar-iyul

**67,8**
2021- yil yanvar-iyul



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Namangan shahri (736855,7 mln. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 33,7 %), Uychi tumani (292589,5 mln. so‘m yoki 13,4 %), Namangan tumani(218494,0 mln. so‘m yoki 10,0 %)ga to‘g‘ri keldi.*

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 29,5 % ni tashkil etdi yoki 1026957,7 mln. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan 112,9% ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **123137,8** mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3355925,4** mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi.



# Davlat mulkchilik shakli bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyul oylarida




# Nodavlat mulkchilik shakli bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyul oylarida








# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-iyul oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **75,0** % i yoki **2610834,1** mln. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**10,1 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **263055,9** mln. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1385401,1** mln. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,0 %** ni tashkil etdi.

**53,0%**

**36,9 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **962377,1** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **36,9 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyul oylarida

| | Qurilish ishlari, mln. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish |
|---|---|---|---|
| **Namangan viloyati** | **3479063,2** | **109,8** | **2610834,1** |
| **Namangan shahri** | **967281,3** | **119,3** | **680398,2** |
| ***tumanlar:*** | | | |
| **Mingbuloq** | 108421,8 | 100,5 | 80889,6 |
| **Kosonsoy** | 287170,7 | 94,9 | 227736,4 |
| **Namangan** | 298562,9 | 111,6 | 212448,9 |
| **Norin** | 130342,4 | 104,1 | 107755,1 |
| **Pop** | 299668,6 | 128,4 | 253596,1 |
| **To’raqo’rg’on** | 179318,7 | 105,4 | 131399,5 |
| **Uychi** | 383820,2 | 106,6 | 272299,6 |
| **Uchqo’rg’on** | 221414,4 | 136,4 | 180185,1 |
| **Chortoq** | 238417,2 | 92,8 | 175460,2 |
| **Chust** | 185775,2 | 99,5 | 148681,9 |
| **Yangiqo’rg’on** | 178869,8 | 101,9 | 139983,5 |

**Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

| | 2021- yil yanvar-iyun | 2022- yil yanvar-iyun |
|---|---|---|
| Bino va inshootlarni qurilishi | 69,8 % | 70,2 % |
| Fuqarolik obyektlarini qurilishi | 17,4 % | 7,3 % |
| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 12,8 % | 22,5 % |

100,0 %

*Ma’lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

***ulushi % da***

| | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 2,3 | 4,4 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 56,8 | 53,6 |
| Norasmiy sektor | 40,9 | 42,0 |



**Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,4% ni tashkil etib, 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko’paydi.**

**Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga kamayib, 53,6 % ni tashkil etdi.**

**Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga ko’payib, 42,0 % ni tashkil etdi.**

# Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo‘yicha qurilish ishlari

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 23,6 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 2,1 % punktga ko’paydi.**

**Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 76,4 % (2,1 % punktga kamaydi) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi (0,0 % punktga ko‘paydi).**

***ulushi % da***



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 11,1 % punktga ko’paydi va 12,4 % ni tashkil etdi. Qolgan 87,6 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilga nisbatan 11,1 % punktga kampaydi.

